FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

XAYDAROV DOVRANJON TURG‘UNOVICH

ENAXON SIDDIQOVA SHE’RIYATINING LINGVOPOETIK TADQIQI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2026

UO‘K: 811.512.133'37+821.512.133.09-1

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of the Doctor of philosophy (PhD) in philological sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

Xaydarov Dovranjon Turg‘unovich
Enaxon Siddiqova she’riyatining lingvopoetik tadqiqi.....…….3

Xaydarov Dovranjon Turg‘unovich
A Linguopoetic Study of Enakhon Siddikova's Poetry …….....25

Хайдаров Довранжон Турғунович
Лингвопоэтическое исследование поэзии Энахон Сиддиковой ……..49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works……..54

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH
FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

XAYDAROV DOVRANJON TURG‘UNOVICH

ENAXON SIDDIQOVA SHE’RIYATINING LINGVOPOETIK TADQIQI

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Farg‘ona – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3690 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Teshaboyev Dilmurod Raxmadjonovich** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Nurmonova Dilfuza Abdulhamidovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Yo'ldoshev Ma'rufjon Muhammadjonovich filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Qo'qon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "10" - 12 soat 8:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100151, Farg'ona shahar, Burhoniddin Marg'inoniy ko'chasi, 105-uy. Tel.: (99873) 244-57-82; e-mail: fardu_info@umail.uz.

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (886 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (99873) 244-44-02; e-mail: fardu_info@umail.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "20" - 11 da tarqatildi.

(2026-yil "20" - 11 dagi 62- raqamli reyestr bayonnomasi)

M.Y.Mamajonov
Ilmiy daraja beruvchilar Ilmiy kengash raisi, fil.f.d., professor

A.I.Saminov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.f.f.d. (PhD), dotsent

M.T.Abdupattoyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, fil.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida lingvopoetika, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika, matn lingvistikasi va lingvokulturologiya yo‘nalishlarining rivojlanishi natijasida badiiy matnni muallif lisoniy shaxsi va individual poetik tafakkuri bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etish ustuvor ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Zamonaviy tadqiqotlarda til birliklarining estetik, konnotativ va pragmatik imkoniyatlari, ularning badiiy mazmunni shakllantirishdagi o‘rni hamda individual uslubni yuzaga chiqarish mexanizmlari kompleks tahlil qilinmoqda. Bu boradagi ilmiy izlanishlar badiiy matnni lingvopoetik jihatdan tahlil qilishning metodologik asoslarini boyitishda hamda amaliy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishda muhim ahamiyatga molik.

Dunyo tilshunosligida badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlarini o‘rganishda fonetik, leksik, frazeologik, morfologik va sintaktik birliklarning poetik funksiyasi, presedent birliklar, poetonimlar, poetik konseptlar hamda muallif idiostilini tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Individual uslubni antropotsentrik va kognitiv yondashuvlar asosida o‘rganish, til birliklarining milliy-madaniy mazmunni ifodalash imkoniyatlarini ochib berish hamda badiiy matnning estetik ta’sir mexanizmlarini aniqlashga doir tadqiqotlar izchil davom etmoqda. Mazkur yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar badiiy matn lingvopoetikasining nazariy asoslarini takomillashtirish hamda individual uslubni tadqiq etish metodologiyasini rivojlantirishda muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tilshunosligida badiiy matn lingvopoetikasiga oid qator fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularda til birliklarining poetik imkoniyatlari, individual uslub, badiiy obraz va estetik tafakkur masalalari turli aspektlarda yoritilgan. Xususan, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan buyon bu borada bir qancha islohotlar olib borilmoqda. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”[1]. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, mazkur sohada hali-hanuz o‘z yechimini kutayotgan bir talay masalalar mavjud. Biroq zamonaviy o‘zbek she’riyatining iste’dodli vakillaridan biri Enaxon Siddiqova ijodining lingvopoetik xususiyatlari, xususan, fonetik va leksik birliklarning poetik imkoniyatlari, presedent birliklar hamda poetonimlarning individual uslubni shakllantirishdagi o‘rni maxsus monografik tadqiqot obyekti sifatida kompleks o‘rganilmagan. Mazkur masalalarni lingvopoetik tamoyillar asosida tizimli tadqiq etish o‘zbek tilshunosligining muammolaridan biri bo‘lib, mavzuning ilmiy dolzarbligi va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // “Xalq so‘zi”gazetasi, 2025-yil 27-dekabr (2026-yil rejalariga bag‘ishlangan ma’ruza). Boshqa manba sifatida:UzA – O‘zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy veb sayti (Murojaat sanasi: 26.12.2025).

tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyoti strategiyasi to‘g‘risida”, 2026-yil 10-apreldagi PF-58-son “Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari; 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining 30 yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy va ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Poetik mahorat, she’riy nutqning jozibadorligini ta’minlovchi intralingvistik va ekstralingvistik omillar, til birliklarining lingvopoetik imkoniyatlarini teran tahlil qilish muammosi azaldan tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Fanlar kesimida antropotsentrik tamoyillar talqini lingvopoetik tahlil doirasini ham kengaytirib yubordi: til → ijodkor → asar → adresat munosabatining lingvopoetik tabiatini o‘rganish jarayonida lingvopoetika yo‘nalishi lingvopragmatika, lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika kabi yondosh sohalar bilan hamkorlik qila boshladi.

Jahon tilshunosligida Aristotel, G.E.Lessing, S.Saporta, E.Koseriu[2] kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida poetik til, matn strukturasi va lisoniy birliklarning estetik imkoniyatlariga doir dastlabki nazariy va metodologik qarashlar o‘z ifodasini topgan.

Rus tilshunosligada R.Jakobson, Y.M.Lotman, I.R.Galperin, M.V.Vinogradov, G.O.Vinokur, L.V.Sherba, V.M.Jirmunskiy, A.A.Potebnya, B.Larin, M.M.Baxtin, M.P.Brandes, M.I.Kojina, B.H.Teliya[3] kabi tilshunos va adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlarida lingvopoetikaning nazariy-metodologik asoslari, badiiy matn semantikasi va uslubiyat masalalari atroflicha o‘rganilgan.

O‘zbek tilshunosligida lingvopoetika masalalari A.Shomaksudov, A.Axmedov, X.Abdurahmonov, B.Yo‘ldoshev, Z.Xamidov, B.Umurqulov, A.Shomaqsudov, B.Bafoyev, X.Shamsiddinov G‘.Abduraxmonov, A.Rustamov,

[2] Aristotle. Poetics. Translated by S. Halliwell. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1995. – P. 27-33; Лессинг Г.Э. Лаокоон, или о границах живописи и поэзии / Под ред. Г.М. Фридленера. – М.: Государственное издательство художественной литературы, 1957. – 520 с. Sapporta S. The Application of Linguistics to the Study of Poetic Language // Style in Language / Ed. by T.A. Sebeok. – Cambridge, Mass.: MIT Press, 1960. – P.82-92. Coseriu E. Thesen zum Thema “Sprache und Dichtung” // Beitrage zur Textlinguistik / Hrsg. Von W.D.Stempel. – Munchen: Fink, 1971. – S.43-47.

[3] Jakobson, R. Linguistics and Poetics // Style in Language. Ed. by Thomas A. Sebeok. – Cambridge, Mass.: MIT Press, 1960. – P. 350–377; Виноградов В. В. О языке художественной литературы. – М.: Гослитиздат, 1959. – С. 21-25; Лотман Ю. М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. – С. 384; Виноградов В. О языке художественной литературы. – М.: Высшая школа, 1971. – С. 240; Galperin I. R. Text as an Object of Linguistic Study. – М.: Nauka, 1981. – P. 139; Телия В. Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа Языки русской культуры, 1996. – С. 288.

X.Usmanov, B.O‘rinboyev, R.Qo‘ng‘urov, J.Lapasov, A.Mamajonov, M.Rustamov, S.Karimov, G.Bakiyeva, A.Boboniyozov, G.Keldiyorova, R.Normurodov, B.Sarimsoqov, M.Tojiboyev, S.Boymirzayeva, M.Yaqubbekova, M.Qosimova, M.Abdupattoyev, L.Djalalova, D.Shadiyeva, A.Haydarov, B.O‘rinboyev, M.Yuldashev, A.Xasanov, M.Xalilova, S.Normamatov, D.Andaniyazova, G.Jumanazarova, Sh.Toshxo‘jayeva, D.Jamoliddinova, O.Tursunova, A.Hamidov, B.Umurqulov, D.Nazarova, T.Butunbayeva, Sh.Yusupova, A.Saminov, N.Axmadjonov, D.Qo‘ldasheva, H.Rahmonov, N.Ortiqova, M.Shukurova, S.Habibullayeva, G.Zaynutdinova va boshqa ko‘plab olimlarning tadqiqotlarida lingvopoetikaning nazariy masalalari tadqiq qilingan. Shuningdek, G.Muhammadjonova, S.Umirova, A.Shofqorov, D.Shadiyeva, G.Keldiyorova, S.Maksumova kabi tadqiqotchilarning[4] she’riy asarlar poetikasi borasidagi izlanishlari diqqatga sazovor.

[4] Шомаксудов А. Язык сатири Мукими (Лексика и фразеология). – Тошкент, 1956; Ахмедов А. Лексика поэзии Фурката. – Тошкент, 1960. – 125 с; Абдураҳмонов Х. Особенности синтаксиса узбекского устного народного творчества: Автореф. дисс. ... док. филол. наук. – Тошкент, 1977; Йўлдошев Б. Бадиий нутқ стилистикаси. – Самарқанд, 1982; Хамидов З. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка “Лисан ат-тайр” Алишера Навои. – Тошкент, 1982; Умуркулов Б. Лексические особенности современной поэтической речи: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1983; Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983; Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983; Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1984; Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1984; Усманов Х. Лингвостилистические особенности языка Лютфи. – Тошкент, 1986; Ўринбоев Б., Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили. – Тошкент, 1990; Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1990; Мамажанов А. Стилистические особенности сложных предложений современного узбекского литературного языка: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Тошкент, 1991; Рустамов М. Гадоий девони тилининг лексикаси. – Тошкент, 1992; Каримов С.А. Ўзбек тилининг бадиий услуби: Филол. фан. док ... дисс. – Тошкент, 1993; Бакиева Г. Лингвистические основы анализа художественного текста: Автореф. дисс. ... д-ра. филол. наук. – Тошкент, 1993; Бобониёзов А. Й. Абдулла Қодирийнинг “Ўтган кунлар” романида тасвирий воситалар ва тил бадийяти: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1995; Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль. – Тошкент: Фан, 1998; Келдиёрова Г. Ўзбек бадиий нутқида антитеза (Э. Воҳидов шеърияти мисолида) // Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 2000; Нормуродов Р.У. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари // Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 2000; Б.Саримсоқов. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004; Тожибоев М. Муҳаммад Шайбоний девони тилининг лексик-семантик хусусиятлари. – Тошкент, 2004; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири ва 90-йиллар бошлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 2004; Боймирзаева С. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Самарқанд, 2004; Яқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. – Тошкент, 2005; Қурбонов Т. Тарихий бадиий асар ва давр тили масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006; Қосимова М. Бадиий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 2007; Қосимова М. Бадиий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари (Тоғай Мурод асарлари асосида): Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – Б. 3–4; Джалалова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 2007; Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2007; Ҳайдаров А. Бадиий тасвирнинг фоностилистик воситалари: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – Б. 22; Ўринбоев Б. Ғафур Ғулом асарларининг лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2008; Тўланова Н. Тўқсонинчи йиллар ўзбек шеърияти тилидаги бадиий санъатларнинг лисоний-услубий таҳлили: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 2008; Йўлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. – Тошкент, 2009; Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри. …дисс. автореф. – Тошкент, 2009; Хасанов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадиийтини таъминловчи лексик-стилистик воситалар: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 2010; Халилова М. Ўзбек тили стилистикаси асослари. – Фарғона: Фарғона нашриёти, 2011; Нормаматов С. Абдулла Авлоний шеърияти лексикасининг маъновий-услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. …дисс. автореф. – Тошкент, 2011; Анданиязова Д. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2017; Жуманазарова Г. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил): Филол. фан. д-ри. … дисс. автореф. – Тошкент, 2017;

Enaxon Siddiqova she’riyatining lingvopoetik xususiyatlari, shoiraning so‘zdan foydalanish mahorati borasida ham ilmiy ishlar qilinmagan.

Enaxon Siddiqova ijodini chuqurroq o‘rganish, uning o‘ziga xos individual mahoratini ochib berish mazkur mavzuni monografik planda maxsus o‘rganishni taqozo qiladi. Shu nuqtayi nazardan, Enaxon Siddiqova she’riyatining lingvopoetik xususiyatlarini tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiqot obyekti sifatida belgilanishi tanlangan mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Farg‘ona davlat universiteti “O‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy tadqiqot yo‘nalishi rejalariga asosan bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi Enaxon Siddiqovaning tildan foydalanish mahoratini belgilashda she’riyat badiiyatini ta’minlovchi fonetik, leksik-semantik, sintaktik-stilistik vositalarni tahlil qilish va shoir ijodining lingvopoetik o‘ziga xosligini asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

badiiy asar tilining o‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligidagi o‘rganilish holatini baholagan holda ularni lingvopoetik tadqiqot doirasida umumlashtirish;

mustaqillik davri she’riyatining o‘zbek tilshunosligida o‘rganilish darajasini belgilash, uning bugungi kundagi dolzarb ahamiyatini ko‘rsatib berish va shoiraning so‘z tanlash, badiiy tasvir vositalarini qo‘llashdagi o‘ziga xoslikning lingvistik va badiiy-estetik asoslarini ochib berish;

Enaxon Siddiqova she’riyati tilining badiiyatini ta’minlovchi fonetik, leksik-semantik va sintaktik-stilistik vositalarni lingvopoetik nuqtayi nazardan o‘rganish;

shoira she’riyatida qo‘llangan metaforik leksemalarning konnotativ-estetik vazifasini aniqlash, turg‘un birikmalarning poetik ko‘lami va sintaktik figuralarning lingvopoetik imkoniyatlaridan foydalanishdagi individual uslubiy mahoratini ochib berish, shu bilan birga, Enaxon Siddiqovaning lingvopoetik

---

Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 2017; Турсунова О. Ўзбек тили фонетик бирликларининг поэтик имкониятлари: Филол. фан. б. фалс. д-ри. … дисс. автореф. – Фарғона, 2019. – Б. 130; Ҳамидов А. Мурод Муҳаммад Дўст асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. номз … дисс. автореф. – Қарши, 2020; Б. Умуркулов Ўзбек бадиий насрининг лингво-услубий шаклланиш асослари: Филол. фан. док. … дисс. (DSc) – Тошкент, 2020; Жамолиддинова Д. Бадиий матнда терминларнинг лингвопоэтик ва лингвокультурологик хусусиятлари. – Тошкент, 2021; Абдупаттоев М. Идиостиль – муаллифнинг окказионал ўзига хослиги // Истиқлол даври ўзбек тилшунослиги, адабиётшунослиги ва фольклоршунослигининг долзарб масалалари. Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент, 2021. – Б. 113-117; Назарова Д.И. Жамол Камол шеърияти поэтикаси: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD)… дисс. автореф. – Бухоро, 2021; Бутунбаева Т.А. Замонавий назмий дискурсда индивидуалликни таъминловчи лисоний воситалар (Аъзам Ўктам ва Минҳожиддин Мирзо шеърияти мисолида): Филол. фан. б. фалс. док. … дисс. – Самарқанд, 2021; Юсупова Ш.Т.Диний матнларнинг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. (PhD) .... дисс. автореф. – Фарғона, 2021; Саминов А.И. Оксюморон – бадиий нутқда лингвопоэтик восита сифатида: Филол. фан. б. фалс. док. … дисс. – Фарғона, 2022; Axmadjonov N. Badiiy uslubda qo‘llangan presedent nomlarning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) … diss. – Farg‘ona, 2022; Muminov S., Gopirova X. Rauf Parfi she’riyatining lingvopoetik xususiyatlari. – Farg‘ona, 2023; Qo‘ldasheva D. Furqat g‘azallarining lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan. b. fals. d-ri (PhD)…diss. avtoref. – Farg‘ona, 2023; Rahmonov H. Omon Matjon she’riy matnlarining assotsiativ strukturasi: Filol. fan. b. fals. d-ri … diss. – Qo‘qon, 2023; Ortiqova N. Anvar Obidjon she’riyatining fonoleksopoetik xususiyatlari: Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) … diss. avtoref. – Farg‘ona, 2024; Shukurova M.X. Mustaqillik o‘zbek she’riyatida ayol konsepti (O.Hojiyeva va E.Siddiqova asarlari misolida): Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) … diss. avtoref. – Toshkent, 2024; Habibullayeva S. Isajon Sulton hikoyalarining lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) … diss. avtoref. – Farg‘ona, 2024; Zaynutdinova G. Shuhrat Orif ijodida lisoniy birliklarning poetik aktuallashuvi: Filol. fan. b. fals. dok. (PhD) … diss. avtoref. – Farg‘ona, 2026.

mahoratini zamondosh ijodkorlar uslubi bilan qiyosiy tadqiq qilish orqali baholashdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida Enaxon Siddiqovaning “Qorakoʻz turnalar” (1993), “Koʻnglim ufqlari” (2003), “Soʻz ustidagi dunyo” (2009), “E’zozli ayollar” (2015), “Ona haqida qoʻshiq” (2015), “Haq qadahi” (2020) “Barxanlarda ungan gul” (2021) “Sizni dedim” (2004) kabi she’riy toʻplamlari olindi.

Tadqiqot predmeti Enaxon Siddiqovaning she’r va dostonlarida umumiy lingvopoetik qonuniyatlarning xususiy voqelanish tabiati va fonetik, leksik-semantik, sintaktik-stilistik vositalarning lingvopoetik xususiyatlarini oʻrganishdan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida semantik-stilistik, komponent tahlil, tavsiflash, qiyoslash, lingvopoetik va pragmalingvistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar bilan belgilanadi:

jahon va oʻzbek tilshunosligida badiiy matnni lingvopoetik hamda lingvostilistik yoʻnalishda tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari umumlashtirilib, Enaxon Siddiqova she’riyatida lisoniy vositalar – fonetik (alliteratsiya, assonans), leksik (metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya, ramz, ibora, maqol, matal) va sintaktik (epitet, oʻxshatish, apostrofa, takror, oksyumoron, antiteza) birliklarning soʻz semantikasidagi nozik qochirimlarni xilma-xil okkazional ifodalarda aks ettirishdagi lingvostilistik roli asoslangan;

badiiy matnda okkazional oʻxshatishlarning hosil boʻlishi va ularning estetik mohiyatini belgilashda shoira mahorati tadqiq etilib, an’anaviy aniq narsa-buyum va predmetli etalonlar oʻrniga insonning ruhiy-psixologik holati, tabiat hodisalari hamda tashqi voqelikni etalon sifatida qoʻllash orqali lisoniy birliklarning badiiy-poetik vazifasi isbotlangan;

shoira she’riyatining leksik-stilistik xususiyatlarini yoritishda turgʻun birikmalarning poetik koʻlami hamda presedentlik imkoniyatlaridan samarali foydalanishdagi individual-uslubiy mahorati va novatorligi she’riy misollar asosida yoritib berilgan;

Enaxon Siddiqova she’riyatida badiiy tasvir va ifoda vositalarining qorishiq (kompleks) qoʻllanishi, ya’ni fonopoetik (alliteratsiya va anafora) va troplarning (metafora, metonimiya va ramz) bir strukturaviy oʻrinda uygʻunlashuvi poetik nutq ekspressivligini oshiruvchi yetakchi omil sifatida aniqlangan hamda shoiraning lingvopoetik mahorati ilmiy dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Enaxon Siddiqovaning oʻzbek she’riyati rivojidagi hissasi, asarlarining lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq etish boʻyicha toʻplangan materiallar, tadqiqot natijasida chiqarilgan xulosa va umumlashmalar oʻzbek tilshunosligi, xususan, hozirgi oʻzbek tili, oʻzbek tili stilistikasi, lingvopoetika, lingvokulturologiya va sotsiolingvistika fanlarini oʻqitishda amaliy jihatdan yordam berishi asoslab berilgan;

Tadqiqot natijalari yuzasidan olingan ilmiy xulosalar, amaliy natijalar nafaqat ta’limning barcha boʻgʻinlarida til oʻqitishni yanada takomillashtirishi, lingvopoetika istiqbolini belgilashi va bu borada yaratiladigan monografiyalar, darslik va oʻquv qoʻllanmalarning mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

til taraqqiyoti davomida muayyan ijodkorlar asarlarining katta ahamiyat kasb etishi o‘zbek tilshunosligi uchun muhim ilmiy-nazariy ma’lumotlar berishi va yangi nazariy va amaliy kurslarning tashkil etilishida muhim manba bo‘la olishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi hal qilinayotgan masalalarning aniqligi va dolzarbligi, tadqiqotning ilmiy bazasi, lingvistik metodlarning tadqiqot maqsadiga mosligi va to‘g‘ri qo‘llanganligi, nazariy ma’lumotlarning ilmiy manbalarga izchil asoslanganligi, foydalanilgan badiiy manbalarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, g‘oyalarning sintaktik qonuniyatlarga mosligi, muammoni tadqiq qilishda ilmiy-nazariy manbalarga tayanilganligi, shuningdek, erishilgan ilmiy natijalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, tadqiqot jarayonida olib borilgan tahlillarning dissertatsiya nazariy asoslariga mosligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati lingvopoetika, individual uslub nazariyasi hamda badiiy matn tilshunosligiga oid ilmiy qarashlarning Enaxon Siddiqova she’riyati misolida yangi lingvistik dalillar bilan boyitilganligi, shuningdek, fonetik va leksik birliklar, presedent birliklar hamda antropotsentrik poetonimlarning lingvopoetik imkoniyatlari tizimli ravishda ilmiy-nazariy jihatdan yoritilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, undan lingvopoetika**,** matn tilshunosligi**,** stilistika**,** hozirgi o‘zbek adabiy tili**,** lingvokulturologiya**,** kognitiv tilshunoslik**,** badiiy matn tahlili hamda individual uslub nazariyasi fanlari bo‘yicha ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda, maxsus kurslar ishlab chiqishda, magistrlik va doktorlik tadqiqotlarini amalga oshirishda, shuningdek, darslik, o‘quv qo‘llanma, monografiya va ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Enaxon Siddiqova she’riyatining lingvopoetik xususiyatlari jihatdan amalga oshirilgan tadqiqi asosida:

jahon va o‘zbek tilshunosligida badiiy matnni lingvopoetik hamda lingvostilistik yo‘nalishda tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari umumlashtirilganligi, Enaxon Siddiqova she’riyatida lisoniy vositalar – fonetik (alliteratsiya, assonans), leksik (metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya, ramz, ibora, maqol, matal) va sintaktik (epitet, o‘xshatish, apostrofa, takror, oksyumoron, antiteza) birliklarning so‘z semantikasidagi nozik qochirimlarni xilma-xil okkazional ifodalarda aks ettirishdagi lingvostilistik roli asoslab berilganligiga oid xulosalardan 2022-2023-yillarda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazida bajarilgan II-4721101717-raqamli “Xizmat ko‘rsatish obyektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining 2026-yil 26-iyundagi 01-505-son ma’lumotnomasi);

shoira she’riyatining leksik-stilistik xususiyatlarini yoritishda turg‘un birikmalarning poetik ko‘lami hamda presedentlik usulining imkoniyatlaridan samarali foydalanishdagi individual-uslubiy mahorati va novatorligi faktik materiallar hamda boy matniy misollar asosida yoritib berilganligi haqidagi ilmiy

xulosalardan 2025-2026-yillarda O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanalining “Bedorlik”, “Ijod zavqi”, “Ta’lim va taraqqiyot”, “Millat va ma’naviyat” teleko‘rsatuvlari ssenariysini yozishda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasining 2025-yil 11-apreldagi 26-36-1050-son ma’lumotnomasi). Natijada teleko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni takomillashgan va eshittirishlarda taqdim etilgan mazkur ilmiy natijalar tinglovchilarning til sathiga xos tushunchalarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan;

Enaxon Siddiqova she’riyatida badiiy tasvir va ifoda vositalarining qorishiq (kompleks) qo‘llanishi, ya’ni fonopoetik va troplarning (alliteratsiya, anafora va metafora) bir strukturaviy o‘rinda uyg‘unlashuvi poetik nutq ekspressivligini oshiruvchi yetakchi omil sifatida aniqlangan hamda shoiraning lingvopoetik mahorati va uslubiy takomili tahlil etish orqali ilmiy dalillanganligi bo‘yicha ilgari surilgan ilmiy xulosalardan 2022-2023-yillarda Farg‘ona davlat universitetida bajarilgan AL-FDU2022307-010 raqamli “Lingvistik tahrir va tarjimashunoslik” ilmiy-tadqiqot markazida “Antiplagiat” dasturini amaliyotga joriy etishda foydalanilgan. (Farg‘ona davlat universitetining 2026-yil 3-iyuldagi 04/7780-son ma’lumotnomasi). Natijada yondashuvlar loyiha ishtirokchilarining amaliy mashg‘ulotlarida lingvistik tahlil metodlarini o‘rgatish uchun asos bo‘lgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza shaklida bayon qilingan hamda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, ulardan 3 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 154 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, o‘rganilganlik darajasi yoritilgan; tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan; ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘rin olgan.

Dissertatsiyaning **“Zamonaviy tilshunoslikda lingvopoetik tadqiqotlarning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Lingvopoetika va individual uslub tushunchalari, ularning lingvistik talqini hamda lingvopoetika va individual uslubning jahon va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilish masalalari izchil yoritiladi. Xususan, *“Lingvopoetikaning jahon va o‘zbek tilshunosligida o‘rganilishi”* deb nomlangan birinchi faslda lingvopoetikaning nazariy asoslari, uning jahon va o‘zbek tilshunosligida shakllanish hamda rivojlanish bosqichlari

yoritiladi. Shuningdek, badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari, til birliklarining estetik funksiyasi, obraz yaratishdagi o‘rni hamda muallif individual uslubining lisoniy ifoda vositalari zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi.

Lingvopoetikaning nazariy ildizlari qadimgi yunon poetikasiga, xususan, Aristotelning “Poetika” asarida ilgari surilgan poetik nutq, metafora va til vositalarining estetik funksiyasiga oid qarashlarga borib taqaladi[5]. Mazkur g‘oyalar keyinchalik poetika, ritorika va stilistika rivojiga metodologik asos bo‘lib xizmat qilgan hamda Uyg‘onish, klassitsizm va romantizm davrlarida badiiy tilning estetik imkoniyatlarini talqin etish orqali yanada boyitilgan[6].

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida struktural tilshunoslik hamda rus formal maktabi vakillari badiiy matnni uning ichki tuzilishi va poetik xususiyatlari asosida tahlil qilish zarurligini asoslab, lingvopoetikaning mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishiga muhim hissa qo‘shdilar. Xususan, V.B.Shklovskiy badiiylikning asosini til vositalarining estetik tashkil etilishi bilan bog‘lab, begonalashtirish nazariyasi orqali poetik birliklarning badiiy idrokni faollashtirishdagi o‘rnini ilmiy jihatdan izohladi[7], B.M.Eyxenbaum esa badiiy matnning estetik qimmati uning ichki lisoniy-kompozitsion tuzilishi, uslubiy yaxlitligi va poetik vositalar uyg‘unligi bilan belgilanishini asoslab, lingvopoetik tahlilning nazariy tamoyillarini yanada takomillashtirdi[8].

Praga lingvistik maktabi namoyandalari Rus formalizmi g‘oyalarini rivojlantirib, lingvopoetikaning funksional-estetik asoslarini boyitdilar. Xususan, J.Mukarovskiy badiiy tilning estetik funksiyasini uning yetakchi belgisi deb bilib, lisoniy birliklarning kommunikativ va estetik imkoniyatlarini asosladi[9]. R.Yakobson poetik funksiyani muloqot jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida izohlab, badiiy nutqni lingvistik tahlil etish mezonlarini kengaytirdi[10]. Y.Lotman badiiy matnni ko‘p qatlamli semiotik tizim deb baholab, uning semantik va madaniy-strukturaviy mohiyatini ko‘rsatib berdi[11]. V.Vinogradov esa muallifning tildan foydalanish mahorati hamda individual uslubini lingvopoetik tahlilning tayanch mezoni sifatida e’tirof etdi[12]. Ushbu nazariy qarashlar badiiy matnni lingvoestetik va semiotik jihatdan kompleks tadqiq etishning metodologik poydevorini shakllantirdi.

Zamonaviy lingvopoetik tadqiqotlarda badiiy matn fonetik, leksik, frazeologik, morfologik va sintaktik birliklarning poetik funksiyasi, trop va stilistik vositalarning estetik imkoniyatlari, shuningdek, muallif individual uslubi hamda poetik konseptlarning o‘zaro uyg‘unligi asosida tahlil qilinadi[13]. Mazkur

---

[5] Аристотель. Поэтика // Сочинения: в 4 т. Т. 4. – М.: Мысль, 1983.

[6] Wellek R., Warren A. Theory of Literature. New York: Harcourt, Brace & World, 1956; Eagleton T. Literary Theory: An Introduction. – Oxford: Blackwell Publishing, 1983.

[7] Шкловский В. Б. О теории прозы. – М.: Советский писатель, 1983.

[8] Эйхенбаум Б. М. О литературе: Работы разных лет. – М.: Советский писатель, 1987.

[9] Mukařovský J. Aesthetic Function, Norm and Value as Social Facts. Ann Arbor: University of Michigan Press, 1970.

[10] Jakobson, R. Linguistics and Poetics // Style in Language. Ed. by Thomas A. Sebeok. Cambridge, Mass.: MIT Press, 1960. – P. 350-377.

[11] Лотман Ю. М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. – С. 384.

[12] Виноградов В. В. О языке художественной литературы. – М.: Высшая школа, 1971. – С. 240.

[13] Jakobson R. Linguistics and Poetics // Style in Language. – Cambridge (Mass.): MIT Press, 1960. – P. 350-377; Лотман Ю. М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. – С. 384; Galperin I. R. Text as an Object of Linguistic Study. – M.: Nauka, 1981. – P. 139. Виноградов В. В. О языке художественной

yondashuv lingvopoetikani badiiy matnning lisoniy-estetik tabiatini kompleks yoritishga xizmat qiluvchi integrativ ilmiy yo‘nalish sifatida e’tirof etadi.

O‘zbek tilshunosligida lingvopoetika stilistika va badiiy nutq tadqiqotlari negizida shakllanib, antropotsentrik paradigma, matn tilshunosligi hamda kognitiv yondashuvlar ta’sirida mustaqil yo‘nalishga aylandi. Bu jarayonda B.Yo‘ldoshev, B.Umurqulov, A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo‘ng‘urov, H.Rustamov, H.Shamsiddinov, J.Lapasov va M.Yo‘ldoshev tadqiqotlari sohaga oid nazariy-metodologik zamin yaratdi. Ayniqsa, M.Yo‘ldoshevning badiiy matn lingvopoetik tahliliga bag‘ishlangan izlanishlari matnni yaxlit tizim sifatida talqin etib, ushbu tahlilning tayanch tamoyil hamda metodlarini ilmiy asoslab berdi[14].

O‘zbek tilshunosligida lingvopoetik izlanishlar folklor, nasr va she’riyat matnlarining lisoniy-estetik tabiatini kompleks o‘rganish yo‘nalishida rivojlandi. Xususan, folklor lingvopoetikasida X.Abdurahmonov, M.Yaqubbekova va G.Jumanazarova xalq og‘zaki ijodi poetikasi hamda milliy konseptlarini yoritgan bo‘lsalar[15], nasr tahlilida Y.Solijonov, B.Umurqulov, S.Boymirzayeva, M.Qosimova hamda L.Jalalova muallif uslubi va badiiy mazmun mexanizmlarini asosladilar[16]. She’riyat lingvopoetikasi esa X.Egamov, B.Umurqulov, I.Mirzayev,

---

литературы. – М.: Гослитиздат, 1959. – С. 21. Телия В. Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа Языки русской культуры, 1996. – С. 288. Aristotle. Poetics. Translated by S. Halliwell. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1995. – P. 27.

[14] Йўлдошев Б. Бадиий нутқ стилистикаси. Самарқанд, 1982; Умркулов Б. Лексические особенности современной поэтической речи: Автореф. дисс … канд. филол. наук. – Тошкент, 1983; Шомақсудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Ҳ. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983; Шамсиддинов Х. Термини в художественной речи: Автореф. дисс … канд. филол. наук. – 1984; Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стиль. – Тошкент: Фан, 1998; Ўринбоев Б, Қўнғуров Р., Лапасов Ж. Бадиий текстнинг лингвистик таҳлили. – Тошкент, 1990; Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1990; Мамажанов А. Стилистические особенности сложных предложений современного узбекского литературного языка: Автореф. дисс. докт. филол. наук. – Тошкент, 1991; Каримов С.А. Ўзбек тилининг бадиий услуби: Филол. фан. док…дисс. – Тошкент, 1993; Бакиева Г. Лингвистические основы анализа художественного текста: Автореф. дисс… д-ра филол. наук. – Тошкент, 1993; Б.Саримсоқов. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент, 2004; М.Йўлдошев. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи. – Тошкент, 2009; Ҳайдаров А. Бадиий тасвирнинг фоностилистик воситалари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008; – Б. 22; Юлдашев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. Келдиёрова Г. Ўзбек бадиий нутқида антитеза (Э. Воҳидов шеърияти мисолида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Қурбонов Т. Тарихий бадиий асар ва давр тили масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006; Халилова М. Ўзбек тили стилистикаси асослари. Фарғона, Фарғона нашриёти, 2011; Д.Анданиязова. Бадиий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2017; Жамолиддинова Д. Бадиий матнда терминларнинг лингвопоэтик ва лингвокультурологик хусусиятлари. – Тошкент, 2021; Шомаксудов А. Язык сатири Мукими (Лексика и фразеология). – Тошкент, 1956; Ахмедов А. Лексика поэзии Фурката. – Тошкент, 1960; Хамидов З. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка “Лисан ат-тайр” Алишера Навои. – Тошкент,1982; Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1983; Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1984; Усманов Х. Лингвостилистические особенности языка Лютфи. – Тошкент, 1986; Рустамов М. Гадоий девони тилининг лексикаси. – Тошкент, 1992; Тожибоев М. Муҳаммад Шайбоний девони тилининг лексик-семантик хусусиятлари. – Тошкент, 2004.

[15] Абдураҳмонов Х. Особенности синтаксиса узбекского устного народного творчества: Автореф. дисс. ... док. фил. наук. – Тошкент, 1977; Яқуббекова М. Ўзбек халқ қўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари. – Тошкент,2005; Г.Жуманазарова. Фозил Йўлдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил): Филол. фан. д-ри. (DSc) … дисс. автореф. – Тошкент, 2017.

[16] Солижонов Й. XX асрнинг 80-90 йиллари ўзбек насрида бадиий нутқ поэтикаси. – Тошкент, 2003; Умуркулов Б. Ўзбек бадиий насрининг лингво-услубий шаклланиш асослари: Филол. фан. д-ри. (DSc) … дисс. – Тошкент, 2020; Боймирзаева С. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2004; Қосимова М. Бадиий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007; Джалалова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007.

G.Muhammadjonova, N.To‘lanova, G.Rixsiyeva, H.Ahmedov va D.Shadiyeva izlanishlari negizida fonetik, leksik, sintaktik va konseptual yo‘nalishlar bilan boyib, poetik tafakkurning nazariy-metodologik zaminini mustahkamladi[17]. Mazkur tadqiqotlar milliy lingvopoetikaning yaxlit ilmiy soha sifatida shakllanishida tayanch o‘rin tutadi.

O‘zbek tilshunosligida lingvopoetik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri ijodkor individual uslubi va badiiy til mahoratini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, bu borada Hamza, Oybek, G‘afur G‘ulom, Abdulla Qodiriy, Said Ahmad, Shuhrat kabi adiblar ijodi A.Shomaqsudov, Sh.Shobdurahmonov, I.Qo‘chqortoyev, M.Sultonova va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etildi[18]. Keyingi bosqichda A.Boboniyozov, R.Normurodov, S.Boymirzayeva, M.Qosimova, L.Jalalova, A.Xasanov, S.Normamatov va Sh.Toshxo‘jayeva izlanishlarida individual uslub antropotsentrik, kognitiv va pragmalingvistik yondashuvlar asosida yanada chuqur tahlil qilindi[19]. Biroq mavjud tadqiqotlar asosan alohida ijodkorlar yoki ayrim lingvopoetik vositalarga bag‘ishlangan bo‘lib, Enaxon Siddiqova she’riyatining lingvopoetik xususiyatlari kompleks tarzda maxsus tadqiq etilmagan. Mazkur holat shoiraning individual uslubi, poetik tafakkuri, obrazlar tizimi hamda til birliklarining estetik va pragmatik imkoniyatlarini zamonaviy lingvopoetik yondashuvlar asosida tadqiq etish zaruratini belgilaydi.

Ikkinchi fasl *“Individual uslub nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi”* deb nomlanib, bu faslda individual uslub tushunchasining nazariy asoslari, uning

---

[17] Эгамов Х. Шеърий асар тилини ўрганиш. – Тошкент, 1973; Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент, 1990; Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста – Тошкент, 1992; Аҳмедов Ҳ. Ўзбек адабиётида насрий шеъ: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1995; Рихсиева Г. Шеъриятдаги гапларнинг актуал бўлинишида анафоралар ўрни: Филол. фан. номз ... дисс. – Тошкент, 1999; Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири ва 90-йиллар бошлари ўзбек шеъриятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. номз ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004; Тўланова Н. Тўқсонинчи йиллар ўзбек шеърияти тилидаги бадиий санъатларнинг лисоний-услубий тахлили: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008.

[18] Шомақсудов А. Ўзбек адабий тилининг ривожланишида Ҳамза ижодининг аҳамияти // Шарқ юлдузи, – Тошкент, 1954. №3; Шобдураҳмонов Ш. Ойбек романларининг тили ва стили // Шарқ юлдузи, – Тошкент, 1955. №10; Тўрабекова С. Ғафур Ғулом поэмаларининг тили ва стили ҳақида: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1961; Чориев Б. Ғафур Ғулом поэзияси лексикасининг айрим масалалари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1972; Самадов Қ. Ойбек – сўз санъаткори. – Тошкент, 1965; Самадов Қ. Ойбек тил маҳоратининг баъзи масалалари. – Тошкент, 1967; Қўчқортоев И. Бадиий сўз устаси. – Тошкент, 1967; Султонова М. Абдулла Қаҳҳор услуби. – Тошкент,1967; Ёриев Б. Язык поэзии М.Шайхзаде: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1979; Махматмуродов Ш. Язык “Дивана” Хамза Хакимзаде Ниязи: Дисс ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1981; Насриддинов Ф. Адибнинг йўли. Абдулла Қодирий маҳорати. – Тошкент, 1971; Ойбекнинг тил маҳорати. – Тошкент, 1981; Юлдашев Б. Язык и стиль произведений Саида Ахмада. – Тошкент, 1979; Турдиалиев Б. Ҳамза ва ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 1981; Алиев А.Ю. Абдулла Қодирий “Обид кетмон” қиссасининг баъзи тил хусусиятлари // Ўзбек тилшунослигининг актуал масалалари. – Тошкент, 1985; Тўйчиев М. Шуҳрат прозасининг тили. – Тошкент, 1986, Чориев Б. Ғафур Ғулом шеърияти тили. – Тошкент, 1990.

[19] Бобониёзов А.Й. Абдулла Қодирийнинг “Ўтган кунлар” романида тасвирий воситалар ва тил бадийяти: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 1995; Р.У.Нормуродов Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари: Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Боймирзаева С. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2004; Қосимова М. Бадиий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007; Джалалова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2007; Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2007; Б.Ўринбоев. Ғафур Ғулом асарларининг лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2008; Хасанов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадиийтини таъминловчи лексик-стилистик воситалар: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2010; Нормаматов С. Абдулла Авлоний шеърияти лексикасининг маъновий-услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2011; Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017.

jahon va o‘zbek tilshunosligida shakllanish hamda rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, individual uslubning lingvistik mohiyati, muallif lisoniy shaxsining namoyon bo‘lish xususiyatlari, til birliklarining uslubiy-estetik funksiyasi hamda ijodkorning badiiy tafakkurini ifodalovchi lisoniy vositalar zamonaviy lingvopoetik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi.

Tilshunoslikda individual uslub badiiy matn lingvistik tahlilining asosiy nazariy mezoni sifatida e’tirof etilib, u muallifning til birliklarini tanlash, ularni badiiy-estetik maqsadga muvofiq qo‘llash hamda o‘ziga xos poetik tizim yaratish mahoratini ifodalaydi[20].

V.V.Vinogradov individual uslubni muallifning estetik konsepsiyasi va badiiy tafakkurini ifodalovchi yaxlit semiotik tizim deb baholagan bo‘lsa[21], A.M.Peshkovskiy uni chuqurlashtirilgan uslubiy tahlil asosida o‘rganish zarurligini ta’kidlab, individual uslubni matnning lingvopoetik mohiyatini ochib beruvchi asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etadi[22].

Individual uslub stilistika, matn tilshunosligi va lingvopoetikaning muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, muallifning lisoniy shaxsi, badiiy tafakkuri va estetik mahoratini yoritishda asosiy nazariy mezon hisoblanadi. Zamonaviy tilshunoslikda u til birliklarining uslubiy xususiyatlari yig‘indisi sifatida emas, balki muallifning kommunikativ, kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi murakkab tizim sifatida talqin etilmoqda. Mazkur nazariyaning ilmiy asoslari XIX–XX asrlarda shakllangan bo‘lsa-da, uning dastlabki nazariy manbalari antik davr notiqlik va poetika ta'limotlariga borib taqaladi.

Individual uslub nazariyasining shakllanishida antik davr mutafakkirlari muhim o‘rin tutadi. Sitseron uslubni notiqning shaxsiy mahorati va nutqiy individualligi bilan bog‘lab talqin etgan bo‘lsa[23], Kvintilian uni notiqning bilim darajasi, axloqiy kamoloti va nutq madaniyatining mahsuli sifatida izohlaydi[24]. XIX asrda V.fon Gumboldt tilning ijodiy tabiati va shaxs bilan uzviy bog‘liqligini asoslab, individual uslub nazariyasining falsafiy poydevorini yaratdi, F.de Sossyur esa til va nutqni farqlash orqali individual uslubni muallif nutqiy faoliyatining mahsuli sifatida talqin etish uchun metodologik asos yaratdi[25]. Ushbu g‘oyalar Sh.Balli tomonidan tilning ekspressiv-uslubiy imkoniyatlari haqidagi ta’limot bilan boyitilib, uslub muallifning til birliklarini individual tanlashi va estetik maqsadga muvofiq qo‘llashi natijasi ekanligi ilmiy asoslandi[26].

XX asrda individual uslub nazariyasi L.Shpitser, V.Vinogradov, R.Yakobson va Y.Lotman tadqiqotlari asosida yangi bosqichga ko‘tarildi. L.Shpitser badiiy matnni muallifning estetik va lisoniy individualligini aks ettiruvchi yaxlit tizim

---

[20] Виноградов В. В. О теории художественной речи. – М.: Наука, 1971. – С.105.

[21]Виноградов В. В. О теории художественной речи. – М.: Наука, 1971. – С.211.

[22] Пешковский А. Вопросы методики родного языка лингвистики и стилистики. – М.; Л.: Госиздат, 1930. – С. 58.

[23] Cicero M.T. De Oratore. Vol. I-II. Translated by E. W. Sutton, H. Rackham. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1942.

[24] Quintilian. The Orator's Education (Institutio Oratoria*).* Translated by H. E. Butler. In 5 vols. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2001-2002. (Loeb Classical Library).

[25] Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию / пер. с нем.; под ред. Г. В. Рамишвили. – М.: Прогресс, 2000. – С. 400; Соссюр Ф. де. Курс общей лингвистики / пер. с фр. А. М. Сухотина; под ред. Р. И. Шор. – М.: Едиториал УРСС, 2004. – С. 256.

[26] Балли Ш. Французская стилистика. – М.: Издательство иностранной литературы, 1961. – С. 394.

sifatida talqin etib, filologik doira metodini ishlab chiqdi[27]. Keyingi davrda individual uslub lingvopoetika, matn lingvistikasi va lisoniy shaxs nazariyasi bilan integratsiyada rivojlanib, Y.N.Karaulov uni muallifning lisoniy shaxsining ifodasi[28], I.R.Galperin esa badiiy matnning leksik, grammatik va pragmatik qatlamlari uyg‘unligida namoyon bo‘ladigan yaxlit uslubiy tizim sifatida izohladi[29]. Natijada individual uslub zamonaviy tilshunoslikda muallifning badiiy tafakkuri, kommunikativ strategiyasi va estetik konsepsiyasini ifodalovchi asosiy lingvopoetik kategoriya sifatida e'tirof etildi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida individual uslubni lingvopoetik yondashuv asosida tadqiq etish yangi bosqichga ko‘tarildi. B.Yo‘ldoshev individual uslubni badiiy matnning barcha lisoniy qatlamlari uyg‘unligida shakllanuvchi estetik tizim sifatida talqin etgan bo‘lsa[30], O‘.Nosirov muallif obrazi va individual uslubning uzviy bog‘liqligini asoslab berdi[31], S.Karimov esa grammatik vositalarning idiostilni shakllantirishdagi funksional imkoniyatlarini yoritdi[32]. Bugungi kunda individual uslub antropotsentrik, lingvopoetik, kognitiv va pragmalingvistik yondashuvlar asosida muallifning lisoniy shaxsi, poetik tafakkuri va estetik dunyoqarashining ifodasi sifatida talqin qilinmoqda. Mazkur ilmiy qarashlar individual uslubni ijodkor poetik individualligining muhim lingvopoetik kategoriyasi sifatida baholash uchun mustahkam nazariy-metodologik asos yaratadi[33].

Tadqiqotning **“Enaxon Siddiqova she’riyati individualligini ta’minlovchi lisoniy vositalar”** nomli ikkinchi bobining *“Enaxon Siddiqova she’rlaridagi fonetik vositalarning poetik imkoniyatlari”* deb nomlangan faslida fonetik vositalarning badiiy matn estetikasi va poetik mazmunni shakllantirishdagi o‘rni lingvopoetik nuqtayi nazardan yoritiladi. Unda fonopoetikaning nazariy asoslari, tovush takrori, alliteratsiya, assonans, ritm, ohang va intonatsiya kabi fonetik birliklarning badiiy-estetik funksiyalari tahlil qilinib, Enaxon Siddiqova she’riyatida ushbu vositalarning obrazlilikni kuchaytirish, emotsional-ekspressiv ta’sirni oshirish hamda individual poetik uslubni namoyon etishdagi o‘rni ilmiy asosda ochib beriladi.

Lingvopoetikada fonetik vositalar matnning estetik-emotsional quvvatini ta’minlovchi yetakchi lisoniy omil sanaladi. Zotan, muallifning individual uslubiy o‘ziga xosligi tovush va so‘z birliklarini muayyan estetik maqsadga muvofiq saralash ko‘nikmasida namoyon bo‘ladi[34]. M.P.Brandes tilning ekspressiv imkoniyatlarini uning ijodiy tabiati bilan bog‘lab, yangicha uslubiy ma’no va jilvalar lisoniy birliklarning an’anaviy me’yordan chekinishi asosida shakllanishini

[27] Spitzer L. Linguistics and Literary History: Essays in Stylistics. – Princeton: Princeton University Press, 1948. – P. 466.

[28] Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – С. 263.

[29] Гальперин И. Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. – С. 139.

[30] Yo‘ldoshev B. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2008.

[31] Nosirov O‘. Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. – Toshkent: Fan, 1981.

[32] Karimov S. O‘zbek tilining grammatik stilistikasi masalalari. – Samarqand: SamDU nashri, 1995.

[33] Абдупаттоев М. Идиостиль – муаллифнинг окказионал ўзига хослиги // “Истиқлол даври ўзбек тилшунослиги, адабиётшунослиги ва фольклоршунослигининг долзарб масалалари”. Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Тошкент, 2021. – Б. 117.

[34] Қосимова М. Бадиий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари (Тоғай Мурод асарлари асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – Б. 3-4.

ko‘rsatadi[35]. Binobarin, poetik matnda fonetik vositalar shunchaki ohangdorlik hosil qilmay, poetik g‘oyani teranlashtirish va obrazlilikni oshirishga xizmat qiladi. E.Qilichev fonetik birliklar va ularning estetik vazifasini fonostilistikaning tayanch obyekti deb biladi[36], M.Qosimova esa tovushlar takrori hamda fonografik usullar badiiy nutq ekspressivligini oshirishini ta’kidlaydi[37]. Shu nuqtayi nazardan, Enaxon Siddiqova poeziyasida alliteratsiya, assonans va geminatsiya kabi fonopoetik hodisalar musiqiylik, ritmik yaxlitlik va poetik obrazlar ta’sirchanligini yuzaga keltiruvchi lingvopoetik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Assonans (lot. *assonare* – “uyg‘un jaranglash”, fr. *assonance* – “ohangdoshlik”) she’riy nutqda bir xil yoki o‘xshash unli tovushlarning takrorlanishiga asoslangan fonopoetik vosita bo‘lib, matnning musiqiyligi, ohangdorligi va emotsional-ekspressivligini kuchaytirishga xizmat qiladi[38]. Ushbu fonetik usul misralarning intonatsion yaxlitligini ta’minlab, poetik mazmunning ta’sirchanligini oshiradi. T.A.Butunbayeva ham assonansni she’riy nutqda ohangdoshlikni yuzaga keltiruvchi hamda badiiy ifodaning estetik ta’sirini kuchaytiruvchi muhim stilistik vositalardan biri sifatida baholaydi[39].

Quyidagi she’riy parchada *“o”* unlisining takror qo‘llanishi assonansni yuzaga keltirib, matnning musiqiyligi, ritmik yaxlitligi va emotsional ta’sirchanligini kuchaytiradi:

Bu yurtning sarhadlarin fidolar asrab turar,
Oriyat qo‘rg‘onlarin adolar asrab turar,
Ozodlik muzofotin, istiqlol saodatin
Yaxshilar qilgan ezgu duolar asrab turar. (“Asrab turar”)

Misralarda *“o”* unlisining *fidolar, oriyat, qo‘rg‘onlarin, adolar, ozodlik, muzofotin, istiqlol, saodatin, duolar* leksemalari tarkibida muntazam takrorlanishi she’rning fonik uyg‘unligini ta’minlab, tantanavor ohangni yuzaga keltiradi. Mazkur fonopoetik usul Vatan, ozodlik va oriyat kabi tayanch konseptlarning semantik salmog‘ini kuchaytirish bilan birga, she’rning ko‘tarinki ruhini va poetik ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

J.Lapasov alliteratsiyani badiiy nutqning ohangdorligini kuchaytiruvchi fonetik takror vositasi sifatida talqin etadi[40], S.Umirova esa uni poetik mazmunni ta’kidlash, tayanch obrazlarni ajratib ko‘rsatish va ifodaning emotsional-ekspressiv ta’sirini kuchaytirishga xizmat qiluvchi muhim fonopoetik vosita sifatida baholaydi[41]. Mazkur nazariy qarashlar Enaxon Siddiqova she’riyatida ham o‘z tasdig‘ini topadi. Shoira undosh tovushlarning maqsadli takrori orqali she’rning ichki musiqiyligi va ritmik yaxlitligini ta’minlash bilan birga, poetik fikrning ta’sirchanligini oshiradi, semantik markazni tashkil etuvchi obraz va tushunchalarni alohida urg‘ulaydi.

---

[35] Брандес М.П. Стилистика текста. Теоретический курс. – М.: Прогресс-Традиция, 2004. – С. 296.

[36] Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б. 88.

[37] Қосимова М. Бадиий нутқ индивидуаллигининг лингвистик хусусиятлари (Тоғай Мурод асарлари асосида) // Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Toshkent, 2007. – Б. 32.

[38] Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 46.

[39] Бутунбаева Т.А. Замонавий назмий дискурсда индивидуалликни таъминловчи лисоний воситалар (Аъзам Ўктам ва Минҳожиддин Мирзо шеърияти мисолида): Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2021. – Б. 15.

[40] Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б. 39.

[41] Умирова С. Ўзбек шеъриятида лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърияти мисолида): Филол. фан. фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2019. – Б. 49.

Fonetik variantlarning lingvopoetik imkoniyatlari badiiy matnda xalqona ruh, milliy kolorit va emotsional ta’sirchanlikni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Enaxon Siddiqova she’riyatida shevaga xos fonetik shakllarning qo‘llanishi muallif individual uslubining o‘ziga xos belgilaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi:

Ayol…
Qaro ko‘zlarida kangulning qatli
Sohir sukunatni to‘kib yuborar.
G‘amning girdobida umidi yorti
Tunning farog‘atin so‘kib yuborar. (“Qishloq ayoli”)

Mazkur parchada *kangul* leksemasining adabiy tildagi *ko‘ngil* so‘zining shevaga xos fonetik varianti sifatida qo‘llanishi qahramon nutqining tabiiyligini ta’minlash bilan birga, *qaro – kangul – qatli* birliklari orasida fonik uyg‘unlikni yuzaga keltirib, she’rning ohangdorligi va estetik ta’sirchanligini kuchaytiradi. Shu bilan birga, *kangulning qatli* metaforik birikmasi ayolning iztirobli ruhiy holatini ta’sirchan ifodalab, fonetik vositaning poetik mazmunni chuqurlashtirish va obrazning emotsional yukini oshirishdagi lingvopoetik funksiyasini yaqqol namoyon etadi.

She’riy matnda fonetik birliklar poetik konnotatsiyani yuzaga chiqaruvchi muhim lingvopoetik vositalardan biri hisoblanadi. Unli va undosh tovushlarning takroriy qo‘llanishi, bo‘g‘in va ohang uyg‘unligi badiiy nutqning musiqiyligi, emotsional-ekspressivligi hamda estetik ta’sirchanligini kuchaytiradi. A.Nurmonov fonetik birliklarning badiiy-estetik vazifasini lingvopoetikaning muhim tadqiqot obyektlaridan biri sifatida baholasa[42], N.Mahmudov konnotativ ma’no tilning ifoda imkoniyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini ta’kidlaydi[43]. Shu nuqtayi nazardan Enaxon Siddiqova she’riyatida fonetik vositalar poetik konnotatsiyani shakllantirib, muallif individual uslubining muhim belgilaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Shoira she’rlarida fonopoetik vositalar turli ko‘rinishlarda voqelanadi. Jumladan, *-a* va *-o* yuklamalarining takroriy qo‘llanishi lirik kechinmalarning emotsional-ekspressivligini kuchaytirsa, alliteratsiya orqali *“b”*, *“s”*, *“t”*, *“d”*, *“sh”*, *“r”* hamda artikulyatsion jihatdan yaqin *q – g‘* kabi undoshlarning uyg‘un takrori poetik mazmunni fonik jihatdan ta’kidlaydi. Bunday fonetik takrorlar she’rning ichki ritmi va musiqiyligini ta’minlash bilan birga, tayanch obraz va konseptlarni semantik jihatdan aktuallashtirib, muallifning poetik niyati hamda individual uslubini yorqin namoyon etuvchi samarali lingvopoetik vosita vazifasini bajaradi.

Ikkinchi bobning *“Shoira she’rlaridagi okkazional leksik birliklarning lingvopoetikasi”* deb nomlangan faslida shoiraning individual uslubini shakllantiruvchi leksik vositalarning lingvopoetik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Unda leksik birliklarning poetik konnotatsiyasi, semantik transformatsiyasi, metaforik va ramziy qo‘llanishi, sinonimik, antonimik hamda okkazional birliklarning badiiy-estetik vazifalari yoritilib, ularning poetik obraz yaratish, muallif konsepsiyasini ifodalash va she’riy matnning emotsional-ekspressiv ta’sirini kuchaytirishdagi o‘rni Enaxon Siddiqova she’riyati misolida ilmiy asosda ochib beriladi.

[42] Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Тошкент: Шарқ, 2002.
[43] Маҳмудов Н. Тил сиёсати ва сиёсат тили // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2016. – № 4. – Б.27.

Lingvopoetik tadqiqotlarda leksik birliklarning badiiy-estetik imkoniyatlarini o‘rganish muhim metodologik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Chunki badiiy matnda leksik vositalar nominativ vazifadan tashqari estetik, ekspressiv va konnotativ funksiyalarni ham bajaradi. O‘zbek tilshunosligida dastlab stilistik yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlarda badiiy uslubga xos leksik vositalar tahlil qilingan bo‘lsa, keyinchalik lingvopoetik yondashuv asosida ularning obraz yaratish, poetik mazmunni chuqurlashtirish va individual uslubni shakllantirishdagi o‘rni alohida tadqiq etila boshlandi. Natijada leksik birliklar muallif poetik tafakkurini ifodalovchi muhim lingvopoetik vosita sifatida talqin qilinmoqda. Enaxon Siddiqova she’riyatida ham so‘zlarning semantik imkoniyatlari ijodiy kengaytirilib, ular poetik konnotatsiyani yuzaga keltiruvchi asosiy lisoniy birliklardan biriga aylangan.

Shoira ijodida ko‘chma ma’noli birliklar poetik obraz va falsafiy mazmunni shakllantirishda faol ishtirok etadi. So‘zlarning semantik transformatsiyasi natijasida oddiy leksik birliklar chuqur estetik mazmun kasb etadi. Masalan:

Ortimizdan balki osmon uv tortar,
Duv-duv to‘kilgaymiz... Biz turnaqator –
Balki Haq yodidan o‘chmasmiz, balki
Muhabbat yodidan o‘chib ketar qush. (“Ketar qush”)

Mazkur parchada “*o‘chmoq”* leksemasi lug‘aviy ma’nodan chekinib, “xotiradan chiqmoq”, “ma’naviy izsiz qolmoq” mazmunini ifodalagan. “Haq yodidan o‘chmaslik” va “muhabbat yodidan o‘chish” qarama-qarshiligi orqali ilohiy va insoniy qadriyatlar poetik-falsafiy talqin qilinib, lirik qahramonning ruhiy kechinmalari hamda matnning konnotativ mazmuni kuchaytirilgan.

Enaxon Siddiqova individual uslubining muhim belgilaridan biri so‘zlarga okkazional poetik ma’no yuklay olish mahoratidir. Shoira mavjud leksik birliklarning semantik imkoniyatlarini kengaytirish orqali yangi badiiy mazmun hosil qiladi:

Aylanadi charxi kajraftor, Aylanadi misli charxpalak.
Shu tuproqqa ko‘milib ming bor, Million bora ko‘karar yurak. (“Bir kun”)

Ushbu misolda *ko‘karmoq* fe’li biologik jarayonni emas, balki ma’naviy tiklanish, ezgulikning davomiyligi va ruhiy boqiylikni anglatuvchi individual poetik ma’noda qo‘llangan. Natijada “yurak” obrazi insonning ruhiy olami va ma’naviy merosini ifodalovchi ramziy birlikka aylangan hamda poetik konnotatsiya sezilarli darajada kuchaygan.

Shoira leksik qatlamni boyitishda metafora, epitet, arxaik birliklar, poetik variantlar, sinonim, antonim va omonimlarning uslubiy imkoniyatlaridan ham izchil foydalanadi. Ayniqsa, sinonimik vositalar ma’no nozikliklarini aniqlashtirsa, antonimik qarama-qarshiliklar poetik antitezani hosil qilib, falsafiy mushohadalarni chuqurlashtiradi.

Mazkur bobning *“Enaxon Siddiqova she’riyatida presedent birliklar va poetonimlarning lingvopoetik xususiyatlari”* deb nomlangan uchinchi faslida presedent birliklar hamda poetonimlarning lingvopoetik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Unda presedent birliklar tarixiy, diniy, folklor va transformatsiyalangan turlarga tasniflanib, ularning poetik konnotatsiyani shakllantirish hamda milliy-madaniy mazmunni ifodalashdagi o‘rni yoritiladi.

Enaxon Siddiqova she’riyatida presedent birliklar hamda antropotsentrik poetonimlar shoiraning individual tafakkuri va milliy-madaniy xotirasini aks ettiruvchi tayanch lingvopoetik vositadir. Tarixiy, diniy, folklorik hamda adabiy nomlar yangi poetik kontekstda qayta talqin etilib, nominativ vazifadan tashqari teran assotsiativ-konnotativ sematika va yuqori badiiy-estetik ta’sirchanlik kashf etadi.

Tahlillar asosida Enaxon Siddiqova she'riyatida uchraydigan presedent birliklar *to‘rt guruh*ga ajratildi:

- *tarixiy presedent birliklar;*
- *diniy-irfoniy presedent birliklar;*
- *folklor presedent birliklar;*
- *transformatsiyalangan presedent birliklar.*

Tarixiy presedent birliklar milliy tarix, davlatchilik va ma'rifat g‘oyalarini ifodalashda muhim lingvopoetik vazifa bajaradi. Masalan:

Temur tig‘i yetmagan joyni, Navoiyning qalami oldi. (“Vatan”)

Mazkur misrada *Temur* va *Navoiy* nomlari tarixiy presedent birlik sifatida qo‘llanib, jismoniy qudrat hamda ma'naviy salohiyatning o‘zaro uyg‘unligini ifodalaydi. Shoira tarixiy shaxslarni oddiy tarixiy obraz sifatida emas, balki milliy tafakkur va ma'naviy taraqqiyot timsoli sifatida poetiklashtiradi.

Diniy-irfoniy presedent birliklar tasavvuf falsafasi, ilohiy ishq va komillik g‘oyalarini ifodalashga xizmat qiladi. Xususan:

Yo Mansurman, doringga keldim,
Ishq shahrida boringga keldim. (“Men o‘sha”)

Bu misralarda *Mansur Halloj* obrazi ilohiy ishq va Haq yo‘lidagi fidoyilik timsoli sifatida poetik konnotatsiya hosil qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, *Mansur, Yassaviy, Xizr, Odam Ato, Momo Havo* kabi diniy-irfoniy birliklar lirik qahramonning ruhiy olamini ochish hamda falsafiy mazmunni chuqurlashtirish vazifasini bajaradi.

Folklor presedent birliklari milliy qadriyatlar va xalqona poetik tafakkurni ifodalashda faol qo‘llangan. Jumladan:

Qirq kokili yoyilgan ul Barchinoy qayda,
Alpomishning sadosi yo‘q daryo yo hayda. (“Qizlarimizga”)

Bu yerda *Barchin, Alpomish* va Gulpariy obrazlari xalq og‘zaki ijodi bilan bog‘liq assotsiativ maydonni faollashtirib, milliy ruh, sadoqat va qahramonlik g‘oyalarini poetiklashtiradi.

Shoira ijodida *transformatsiyalangan presedent birliklar* ham alohida o‘rin egallaydi. Bunda klassik adabiyot yoki tasavvufga mansub obrazlar yangi poetik mazmun kasb etadi. Masalan:

Aylanadi charxi kajraftor, Aylanadi misli charxpalak. (“Bir kun”)

An'anaviy mumtoz she'riyatda salbiy mazmunda qo‘llangan *charxi kajraftor* obrazi Enaxon Siddiqova poetikasida hayotning uzluksiz harakati, yangilanish va umid ramzi sifatida qayta talqin etilgan. Bu esa shoiraning individual poetik tafakkuri va obraz yaratish mahoratini namoyon etadi.

Onagul taxallusi shoiraning individual poetik obrazini shakllantiruvchi muhim poetonim sifatida namoyon bo‘ladi:

Azal sarkotibi yorliq ato etmish Onagulga,
Ming shukrki, dilbandingman manam, Farg‘ona. (“Farg‘ona”)

Mazkur misralarda *Onagul* oddiy taxallus emas, balki muallifning lirik "men"i, Vatanga sadoqati va poetik o‘zligini ifodalovchi estetik birlik sifatida talqin qilinadi.

Umuman, Enaxon Siddiqova she'riyatida presedent birliklar va poetonimlar shoiraning individual uslubini belgilovchi muhim lingvopoetik vositalar hisoblanadi. Ular tarixiy xotira, milliy tafakkur, diniy-ma'rifiy qadriyatlar hamda folklor an'analarini zamonaviy poetik tafakkur bilan uyg‘unlashtirib, she'rlarning konseptual mazmunini chuqurlashtiradi.

Tadqiqotning **“Badiiy tasvir va ifoda vositalarining lingvopoetik talqini”** deb nomlangan uchinchi bobining *“Enaxon Siddiqova ijodida trop (ko‘chim)larning o‘rni”* faslida trop (ko‘chim)larning lingvopoetik mohiyati, ularning semantik-estetik va pragmatik xususiyatlari hamda shoiraning individual uslubini shakllantirishdagi funksional imkoniyatlari kompleks lingvopoetik yondashuv asosida yoritiladi.

Badiiy tasvir vositalari lingvopoetik nuqtayi nazardan *ikki asosiy guruh*ga ajratildi: *1) troplar* (metafora, metonimiya, sinekdoxa, ramz, allegoriya, perifraz, kinoya va boshqalar); *2) stilistik figuralar* (o‘xshatish, epitet, antiteza, gradatsiya, takror, ritorik so‘roq, ritorik murojaat, ellipsis, oksyumoron, parallelizm va boshqalar). Mazkur tasnif shoiraning poetik tafakkuri va individual uslubini tizimli tavsiflash imkonini berdi hamda badiiy matndagi leksik vositalarning estetik va pragmatik vazifalarini aniqlashga xizmat qildi.

Tahlillar Enaxon Siddiqova she’riyatida *metafora* eng faol lingvopoetik vositalardan biri ekanligini ko‘rsatadi. Shoira individual metaforalar orqali ruhiy kechinmalar, Vatanga sadoqat, muhabbat, sog‘inch va ijtimoiy-falsafiy qarashlarni obrazli ifodalaydi. Tadqiqotda metaforalar *odatiy metaforalar***,** *jonli metaforalar* va *sinestetik metaforalar* tarzida tasniflanib, ularning poetik funksiyasi yoritildi.

Masalan: *Bu bevafo ko‘zlar sotdi-ya, Ishonardim, ishqda ishim yo‘q.*

Yuragimda ildiz otdi-yu, Gullay ketdi sevgi otgan o‘q. (“Sevgi otgan o‘q”)

Mazkur misrada *“sevgi otgan o‘q”, “yuragimda ildiz otmoq”* kabi individual metaforalar sevgi kechinmalarining chuqurligini obrazli ifodalab, she’rning emotsional-ekspressiv ta’sirini kuchaytiradi hamda shoiraning poetik tafakkurini namoyon etadi.

Bobda *metonimiya, sinekdoxa* va *ramz*larning lingvopoetik imkoniyatlari ham tizimli tahlil qilindi. Metonimiya tarixiy va ijtimoiy mazmunni ixcham ifodalash, sinekdoxa qism orqali butunni poetik umumlashtirish, ramz esa milliy-madaniy konseptlarni badiiy shaklda ifodalash vazifasini bajarishi aniqlandi. Ayniqsa, *“Samarqand”, “dunyo”, “bosh”, “ko‘z”, “bir siqim tuproq”* kabi birliklar kontekstda yangi poetik ma’no kasb etib, shoiraning individual konseptual dunyoqarashini ifodalashga xizmat qilganligi asoslandi. Natijada ushbu ko‘chimlar faqat nominativ emas, balki estetik va pragmatik mazmun tashuvchi lingvopoetik birliklar sifatida namoyon bo‘lishi isbotlandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Enaxon Siddiqova she’riyatida rang bildiruvchi birliklar, tabiat obrazlari va sinestetik metaforalar muallifning individual poetik uslubini shakllantiruvchi muhim vositalardir. Jumladan:

Yomg‘ir, yog‘a qolgin, shoshila qol, Sahroyi ko‘nglimning qovjiragan ul
So‘lg‘in chechaklari ko‘rsatsin jamol (“Yomg‘ir yog‘a qolgin”).

Mazkur misrada *“sahroyi ko‘ngil”* va *“qovjiragan chechak”* obrazlari orqali inson ruhiyati tabiat hodisalari bilan uyg‘unlashtirilgan bo‘lib, sinestetik va jonli metaforalarning o‘zaro uyg‘unligi natijasida kuchli poetik obraz yuzaga kelgan. Bu esa shoiraning abstrakt hissiy holatlarni konkret badiiy tasvirlar vositasida ifodalash mahoratini ko‘rsatadi.

Enaxon Siddiqova she’riyatining leksik-poetik tizimi individual uslubning muhim tarkibiy qismi sifatida baholanib, metafora, metonimiya, sinekdoxa, ramz hamda stilistik figuralarning o‘zaro uyg‘unligi shoiraning poetik tafakkuri va badiiy-estetik konsepsiyasini shakllantiruvchi asosiy omillar ekani ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqot natijalari shoiraning individual uslubida leksik birliklar nafaqat nominativ vazifa bajarishi, balki poetik mazmunni chuqurlashtirish, milliy-madaniy konseptlarni ifodalash va o‘quvchiga estetik ta’sir ko‘rsatishda muhim lingvopoetik vosita sifatida faol qatnashishini ko‘rsatdi.

Bobning ikkinchi fasli *“Stilistik figuralarning lingvopoetik imkoniyatlari”* deb nomlangan bo‘lib, mazkur faslda Enaxon Siddiqova she’riyatida badiiy tasvir va ifoda vositalarining lingvopoetik imkoniyatlari tahlil qilinib, ularning shoiraning individual uslubini shakllantirishdagi o‘rni yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, shoira poetik tafakkurini ifodalashda o‘xshatish, epitet, oksyumoron, antiteza, takror, apostrofa, mubolag‘a va ritorik so‘roq kabi stilistik figuralardan izchil hamda maqsadga muvofiq foydalanadi. Ushbu vositalar obrazlilikni kuchaytirish, poetik mazmunni chuqurlashtirish, emotsional-ekspressiv ta’sirni oshirish va muallifning individual poetik olamini namoyon etuvchi asosiy lingvopoetik birliklar sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘xshatishlar lingvopoetik xususiyatiga ko‘ra *turg‘un* va *individual-muallif o‘xshatishlari,* epitetlar esa *oddiy, stilistik* va *okkazional* turlarga ajratilib tahlil qilindi.

Shoira lirikasida o‘xshatish va epitetlar tabiat, inson ruhiyati hamda milliy qadriyatlarni estetik talqin etishda faol ishtirok etadi. Jumladan:

Yam-yashil maysalar ko‘nglingga o‘xshar,

Alvon qizg‘aldoqlar singlingga o‘xshar. (“Kuy”)

ushbu misralarda *maysa* va *qizg‘aldoq* etalon obrazlari orqali inson ruhiyatining pokligi va go‘zalligi poetik jihatdan ifodalangan. Shuningdek,

Binafsha dil iforlari uchib ketar... misrasidagi *binafsha dil* birikmasi okkazional epitet sifatida lirik qahramonning nozik ruhiy kechinmalarini obrazli ifodalab, matnning emotsional-estetik ta’sirini kuchaytiradi. Demak, o‘xshatish va epitetlar Enaxon Siddiqova poetikasida tasvirni konkretlashtirish, poetik konseptlarni individuallashtirish hamda milliy-estetik tafakkurni aks ettiruvchi muhim lingvopoetik vositalar vazifasini bajaradi.

Enaxon Siddiqova she’riyatida takrorlar ham individual uslubning muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Tahlillar natijasida takrorlarning *fonetik, leksik, morfologik, sintaktik* va *semantik* turlari faol qo‘llanishi aniqlandi. Ayniqsa, anafora, sintaktik parallelizm, undalma va gap takrorlari poetik ritmni mustahkamlash, matnning kompozitsion yaxlitligini ta’minlash hamda muallif g‘oyasini kuchli ta’kidlashga xizmat qiladi.

Umuman, Enaxon Siddiqova she’riyatida qo‘llangan badiiy tasvir va ifoda vositalari o‘zaro uzviy uyg‘unlashib, shoiraning individual poetik uslubini

shakllantiruvchi, obrazlilik va ekspressivlikni ta’minlovchi hamda badiiy matnning lingvopoetik mukammalligini belgilovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

XULOSA

1. Badiiy asarning funksional, strukturaviy va so‘z san’atining o‘ziga xos turi sifatidagi badiiy-semantik birligi – u yoki bu muallifning poetik ijod mahsulidir. Aynan, shuning uchun ham badiiy asar ham adabiy, ham lingvistik tahlil, ya’ni umumfilologik tadqiq obyekti sanaladi.

2. Adabiy tanqid ham, stilistik tahlil ham, lingvopoetik tahlil ham asarning g‘oyaviy-badiiy maqsadi, poetikasi, muallifning o‘quvchiga yetkazmoqchi bo‘lgan “gaplari” salmog‘ini tahlil qilish, ijodkorning individual yo‘nalishini belgilash, o‘ziga xos topilmalarini kashf qilishga qaratilsa-da, mohiyatan va yondashuv jihatidan bir-biridan farqlanadi.

3. Lingvopoetika, bir tomondan, fanlararo metodlar uyg‘unlashuviga tayansa, ikkinchi tomondan, o‘ziga xos spetsifik tahlil usullariga ega bo‘lgan alohida yo‘nalish hisoblanadi. Lingvopoetik tahlil til birliklaridan mohiyat tomon harakatlanadi, ya’ni uslubiy belgiga ega til birliklarining g‘oyaviy-badiiy mazmunni shakllantirish va estetik effekt yaratishdagi funksional xususiyatlarini aniqlashga qaratiladi.

4. Enaxon Siddiqova she’riyatining o‘ziga xos jihatlaridan biri ruhiy kechinmalarni ifodalashda tuyg‘un shoir sifatida metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya, ramz kabi usullardan samarali foydalanib, so‘z semantikasidagi nozik qochirimlarni rang-barang okkazional ifodalarda o‘quvchiga yetkazib bera olgan.

5. Enaxon Siddiqova she’rlarining eng birinchi ko‘zga tashlanadigan xususiyatlaridan biri muallifning metafora olamiga xos o‘zgachaliklardan unumli foydalanganligidir. Xususan, oddiy, jonli va sinestetik metaforalarning har uchala turida ham o‘ziga xos, betakror individual metaforalari uning she’rlaridagi obrazlilikni ta’minlab, jozibadorlilik va uslubiy rang-baranglilikni vujudga keltirgan.

6. Epitet, o‘xshatish, apostrofa, takror, oksyumoron, antiteza kabi stilistik figuralardan juda go‘zal foydalangan. Bu jihatlar o‘zbek tilida til birliklari serqirra jilolanishlarining lingvopoetik imkoniyatlari kengligini asoslashga xizmat qilgan.

7. Enaxon Siddiqova o‘xshatish etaloni sifatida aniq narsa-buyum, predmetlar o‘rniga insonning ruhiy holati, tabiat hodisasi, tashqi voqelik asosidagi okkazional o‘xshatishlar ijod qilgan. Masalan, oilaga munosib kelin izlash o‘zbek xonadoni uchun alohida holat, etnopsixologik jarayon hisoblanadi. Shoira o‘xshatishlarida *-dek, -day, o‘xshatdim, o‘xshar, kabi, misol, go‘yo* ko‘rsatkichlaridan foydalanilgan. Shuningdek, ko‘rsatkichsiz, ishora tipidagi kontekstual o‘xshatishlar ham kuzatildi.

8. Enaxon Siddiqova o‘z she’rlarida kechinmalarni, odatda, baland pardalarda, tuyg‘ular shiddati fonida tasvirlashga moyil. Ana shu ko‘tarinkilik, oniy hissiyotlar tasvirini kutilmagan tashbehlar, qabariq epitetlar va original ko‘chimlar orqali ifodalashga harakat qiladi. Jumladan, o‘zbek shoirlari ijodida kam uchraydigan oksyumoron usulidan ham o‘rinli foydalanadi.

9. Shoira ijodida badiiy tasvir va ifoda vositalarining qorishiq kompleksi shakllantirilgan o‘rinlar ko‘p uchraydi. Enaxon Siddiqova she’rlarida tabiat, inson kechinmalari va abstrakt tushunchalar orqali lirik kayfiyatni kuchaytiruvchi badiiy vositalar faol qo‘llaniladi: U misralarda *apostrofa* (to‘g‘ridan to‘g‘ri murojaat)

vositasi orqali lirik qahramon o‘z iztiroblarini ifodalaydi, tabiat unsurlari bilan suhbatlashadi. Shu tariqa, so‘z va tasvirlar yordamida ruhiyatning nozik kechinmalari jonlantiriladi. Ritorik so‘roq subyektning ichki iztiroblarini, iztirob va savollarni ta’sirchan ifodalaydi; u o‘quvchida hissiy uyg‘unlik yaratadi, gapga ohangdorlik beradi. Bunda anafora (misralar boshida takror) va alliteratsiya yordamida she’r musiqiy ohangdorlik va ritmga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, takror ruhiyatning tarangligini, his-tuyg‘ularning kuchini yanada kuchaytiradi.

10. Enaxon Siddiqova she’rlarida presedentlik usulining go‘zal namunalarini ko‘rish mumkin. Xususan, buyuk bobolarga ehtirom, ularning xalq tarixidagi xizmatlarini e’tirof etish, ta’kidlash ma’nosida pretsdent nomlarni keltirish usuli ko‘p uchraydi.

11. Enaxon Siddiqova ijodida takror badiiy – ekspressiv vositasi muhim o‘rin tutadi. Shoir ijodida takrorning poetik jihatdan *alliteratsiya, assonans, anafora, epifora;* lingvistik nuqtayi nazardan *gap, gap bo‘lagi, undalma, undov va bog‘lovchi* takrori hamda *xiazm* turlari tahlil qilindi.

12. Shoira she’riyatining o‘ziga xosligi va so‘zga boyligi uning badiiy til unsurlaridan unumli foydalana olishida, so‘z o‘yinlari, iboralar tanlashida, maqol va matallarni o‘rinli qo‘llashida yanada yorqinroq ko‘zga tashlanadi. Shoira tomonidan qo‘llanilgan ibora, hikmatli so‘z, maqol va matal, o‘xshatish kabi barqaror birikmalar ijodkor uslubining betakrorligi, uning o‘ziga xos poetik mahoratidan darak beradi. Ular shoir she’riyati ta’sirchanligini oshirishgda, rangin fikrlariga sayqal berishda, so‘zlarning ichki ma’nolarini jilolantirishda o‘ta muhim ahamiyat kasb etgan.

SCIENTIFIC COUNCIL FOR AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSc.03/2025.27.12.Phil.10.05 AT FERGANA STATE UNIVERSITY

FERGANA STATE UNIVERSITY

XAYDAROV DOVRANJON TURG'UNOVICH

A LINGUOPOETIC STUDY OF ENAKHON SIDDIKOVA'S POETRY

10.00.01 – Uzbek Language

DISSERTATION ABSTRACT
of the dissertation of doctor of philosophy (PhD) on PHYLOLOGICAL sciences

Fergana – 2026

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation topic has been registered with the Supreme Attestation Commission under the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan under registration number B2023.2.PhD/Fil3690.

The dissertation was completed at Fergana State University.

The abstract of the dissertation has been posted in three languages (Uzbek, English, and Russian (resume)) on the website of the Scientific Council (www.fdu.uz) as well as on the "Ziyonet" information and educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:	**Teshaboyev Dilmurod Raxmadjonovich** Doctor of Philological Sciences, Professor
Official opponents:	**Nurmonova Dilfuza Abdulhamidovna** Doctor of Philological Sciences, Professor
	Yo'ldoshev Ma'rufjon Muhammadjonovich Doctor of Philological Sciences, Professor
Leading organization:	**Kokand State University**

The dissertation defense will be held at the meeting of the Scientific Council of Ferghana State University, which awards scientific degrees under the title DSc.03/2025.27.12.Fil.10.05, "10" 12 2026, at 8:00 (Address: Fergana city, Burhoniddin Marghinoniy street, 105. Tel.: (99873) 244–57–82; e–mail: fardu_info@umail.uz.

The dissertation can be viewed at the Information Resource Center of Ferghana State University (Registered under number 886). Address: 100151, Fergana city, Murabbiylar street, 19. Tel.: (99873) 244–44–02. e–mail: fardu_info@umail.uz.

The abstract of the dissertation was distributed on "20" 11 2026

(Registry report number 62 dated "20" 11 2026.)

M.Y.Mamajonov
Chairman of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Science in Philology, Professor

A.I.Saminov
Scientific Secretary of the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Science in Philology, (PhD)

M.T.Abdupattoyev
Chairman of the Scientific Seminar at the Scientific Council awarding scientific degrees, Doctor of Science in Philology, Professor

INTRODUCTION (Abstract of the Dissertation for the Degree of Doctor of Philosophy (PhD)

Relevance and Necessity of the Dissertation Topic. The development of linguopoetics, cognitive linguistics, pragmalinguistics, text linguistics, and linguoculturology in contemporary linguistics has made the study of literary texts in close relation to the author's linguistic personality and individual poetic cognition one of the prominent areas of linguistic research. Recent studies have increasingly focused on the aesthetic, connotative, and pragmatic potential of linguistic units, their role in shaping literary meaning, and the mechanisms through which individual style is constructed. Research in these areas is of considerable importance for enriching the methodological foundations of linguopoetic analysis and broadening the scope of applied studies of literary texts.

In international linguistics, particular attention has been devoted to the study of the poetic functions of phonetic, lexical, phraseological, morphological, and syntactic units, as well as to precedent phenomena, poetonyms, poetic concepts, and authorial idiostyle in the analysis of the linguopoetic features of literary texts. Research continues into individual style from anthropocentric and cognitive perspectives, with particular emphasis on revealing the capacity of linguistic units to convey national and cultural meanings and on identifying the mechanisms underlying the aesthetic impact of literary texts. Studies in this field are of significant theoretical and methodological value for advancing the theoretical foundations of literary text linguopoetics and developing approaches to the systematic investigation of individual style.

Uzbek linguistics has likewise produced a substantial body of fundamental research on the linguopoetics of literary texts, addressing the poetic potential of linguistic units, individual style, literary imagery, and aesthetic cognition from a range of perspectives. In particular, since the independence of the Republic of Uzbekistan, a number of reforms and initiatives have been undertaken in this field.

As President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev has emphasized, "Salvation lies in education, upbringing, and knowledge. For it is through knowledge and sound upbringing that all noble aspirations can be achieved.[1]" It should be noted, however, that a number of issues in this field still remain to be adequately addressed. In particular, the linguopoetic features of the works of Enaxon Siddiqova, one of the talented representatives of contemporary Uzbek poetry, have not yet been subjected to a comprehensive monographic study. This is especially true of the poetic potential of phonetic and lexical units and the role of precedent units and poetonyms in shaping the author's individual style. A systematic investigation of these aspects from a linguopoetic perspective constitutes one of the important challenges facing Uzbek linguistics and underscores both the scholarly relevance and practical significance of the present study.

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // "Xalq so'zi"gazetasi, 2025-yil 27-dekabr (2026-yil rejalariga bag'ishlangan ma'ruza). Boshqa manba sifatida:UzA – O'zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy veb sayti (Murojaat sanasi: 26.12.2025).

The present study contributes, to a certain extent, to the implementation of the priority objectives set forth in the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5850 dated October 21, 2019, “On Measures to Fundamentally Enhance the Status and Prestige of the Uzbek Language as the State Language”; No. PF-6084 dated October 20, 2020, “On Measures to Further Develop the Uzbek Language and Improve Language Policy in the Country”; No. PF-6108 dated November 6, 2020, “On Measures to Develop the Spheres of Education and Upbringing, and Science during the New Stage of Development of Uzbekistan”; No. PF-60 dated January 28, 2022, “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026”; and No. PF-58 dated April 10, 2026, “On Additional Measures to Improve the System of Higher Education, Science and Innovation”; as well as the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-4479 dated October 4, 2019, “On the Broad Celebration of the 30th Anniversary of the Adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan ‘On the State Language’,” the Address of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis dated December 20, 2022, and other relevant regulatory and legal acts governing this area.

Relevance of the Research to the Priority Areas of the Development of Science and Technology in the Republic. The present research was carried out in accordance with Priority Area I of the development of science and technology in the Republic, namely, “The formation of a system of innovative ideas and mechanisms for their implementation aimed at the social, legal, economic, cultural, spiritual, and educational development of an information society and a democratic state.”

Degree of Previous Study of the Problem. The issues of poetic craftsmanship, the intralinguistic and extralinguistic factors that contribute to the expressive appeal of poetic discourse, and the in-depth analysis of the linguopoetic potential of linguistic units have long remained a focus of scholarly attention. The interpretation of anthropocentric principles across various fields of study has considerably broadened the scope of linguopoetic analysis. In examining the linguopoetic nature of the relationship among language, the creative author, the literary work, and the addressee, linguopoetics has increasingly developed in close interaction with related disciplines such as linguistic pragmatics, linguoculturology, and cognitive linguistics.

In international linguistics, the scholarly works of such researchers as Aristotle, G.E.Lessing, S.Saporta, and E.Coseriu[2] contain some of the earliest theoretical and methodological approaches to poetic language, text structure, and the aesthetic potential of linguistic units.

In Russian linguistics, the theoretical and methodological foundations of linguopoetics, as well as issues related to the semantics and stylistics of literary

[2] Aristotle. Poetics. Translated by S. Halliwell. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1995. – P. 27-33; Лессинг Г.Э. Лаокоон, или о границах живописи и поэзии / Под ред. Г.М. Фридленера. – М.: Государственное издательство художественной литературы, 1957. – 520 с. Sapporta S. The Application of Linguistics to the Study of Poetic Language // Style in Language / Ed. by T.A. Sebeok. – Cambridge, Mass.: MIT Press, 1960. – P.82-92. Coseriu E. Thesen zum Thema “Sprache und Dichtung” // Beitrage zur Textlinguistik / Hrsg. Von W.D.Stempel. – Munchen: Fink, 1971. – S.43-47.

texts, have been extensively examined in the works of linguists and literary scholars such as R.Jakobson, Y.M.Lotman, I.R.Galperin, V.V.Vinogradov, G.O.Vinokur, L.V.Shcherba, V.M.Zhirmunsky, A.A.Potebnya, B.Larin, M.M.Bakhtin, M.P.Brandes, M.I.Kozhina, and V.N.Teliya[3].

In Uzbek linguistics, theoretical aspects of linguopoetics have been examined in the works of A.Shomaksudov, A.Akhmedov, Kh.Abdurakhmonov, B.Yuldoshev, Z.Khamidov, B.Umurqulov, A.Shomaqsudov, B.Bafoyev, Kh.Shamsiddinov, G'.Abdurakhmonov, A.Rustamov, Kh.Usmanov, B.Urinboyev, R.Qungurov, J.Lapasov, A.Mamajonov, M.Rustamov, S.Karimov, G.Bakiyeva, A.Boboniyozov, G.Keldiyorova, R.Normurodov, B.Sarimsoqov, M.Tojiboyev, S.Boymirzayeva, M.Yaqubbekova, M.Qosimova, M.Abdupattoyev, L.Djalalova, D.Shadiyeva, A.Haydarov, B.Urinboyev, M.Yuldashev, A.Xasanov, M.Xalilova, S.Normamatov, D.Andaniyazova, G.Jumanazarova, Sh.Toshxujayeva, D.Jamoliddinova, O.Tursunova, A.Hamidov, B.Umurqulov, D.Nazarova, T.Butunbayeva, Sh.Yusupova, A.Saminov, N.Axmadjonov, D.Quldasheva, H.Rahmonov, N.Ortiqova, M.Shukurova, S.Habibullayeva, G.Zaynutdinova, and many other scholars. Of particular note are the studies by G.Muhammadjonova, S.Umirova, A.Shofqorov, D.Shadiyeva, G.Keldiyorova, and S.Maksumova[4], which have focused on the poetics of poetic works.

---

[3] Jakobson, R. Linguistics and Poetics // Style in Language. Ed. by Thomas A. Sebeok. – Cambridge, Mass.: MIT Press, 1960. – P. 350–377; Виноградов В. В. О языке художественной литературы. – М.: Гослитиздат, 1959. – С. 21-25; Лотман Ю. М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970. – С. 384; Виноградов В. О языке художественной литературы. – М.: Высшая школа, 1971. – С. 240; Galperin I. R. Text as an Object of Linguistic Study. – М.: Nauka, 1981. – P. 139; Телия В. Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа Языки русской культуры, 1996. – С. 288.

